SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# SIRDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI

DASTLABKI MA’LUMOT

2024- YIL YANVAR-OKTABR

## 2024-yil 1-noyabr holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

2024-yil 1-noyabr holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 838 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya’ni 296 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarning 35,3 % Guliston shahrida joylashgan.

| | |
|---|---|
| Guliston shahri | 296 |
| Mirzaobod tumani | 80 |
| Sirdaryo tumani | 78 |
| Yangiyer shahri | 70 |
| Guliston tumani | 65 |
| Boyovut tumani | 54 |
| Oqoltin tumani | 46 |
| Sayxunobod tumani | 46 |
| Xovos tumani | 37 |
| Shirin shahri | 33 |
| Sardoba tumani | 33 |







Shuningdek, Guliston shahrida 296 ta (viloyat bo‘yicha ularning jami soniga nisbatan 35,3 %), Mirzaobod tumanida – 80 ta (9,5 %) qurilish korxonalari mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichga ega.

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 3 609,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ni tashkil etdi.







*Ma’lumot uchun:* qurilish faoliyati bu – o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma’lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi va 2023-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati, % da

| | | |
|---|---|---|
| * Sirdaryo viloyatida | 3 609,1 mlrd. so‘m | 102,1 % |
| Guliston shahri | 799,3 mlrd. so‘m | 101,3 % |
| Mirzaobod tumani | 684,0 mlrd. so‘m | 165,8 % |
| Sirdaryo tumani | 338,8 mlrd. so‘m | 63,8 % |
| Yangiyer shahri | 243,6 mlrd. so‘m | 105,4 % |
| Shirin shahri | 207,4 mlrd. so‘m | 120,1 % |
| Sardoba tumani | 123,3 mlrd. so‘m | 44,2 % |
| Guliston tumani | 108,0 mlrd. so‘m | 98,9 % |
| Xovos tumani | 100,6 mlrd. so‘m | 82,9 % |
| Sayxunobod tumani | 85,0 mlrd. so‘m | 146,8 % |
| Boyovut tumani | 72,5 mlrd. so‘m | 102,2 % |
| Oqoltin tumani | 72,0 mlrd. so‘m | 102,5 % |

* Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.



2024-yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida xususan, Guliston shahri (799,3 mlrd. so‘m), Mirzaobod tumani (684,0 mlrd. so‘m) va Sirdaryo tumanida (338,8 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

## Qurilish ishlari hajmining o‘sish sur’ati




**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo‘jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar kiritiladi.




**2 446,4 mlrd. so‘m**

**Bino va inshootlar qurish**




**955,1 mlrd. so‘m**

**Fuqarolik obyektlarini qurish**




**207,6 mlrd. so‘m**

**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari**

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 67,8 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 97,5 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 26,5 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 5,7 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **73,8** % yoki **2 665,8** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **530,3** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **19,9** % ni tashkil etdi.

19,9 % — **530,3** mlrd. so‘m

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1 769,5** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **66,4** % ni tashkil etdi.

66,4 % — **1 769,5** mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **366,0** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **13,7** % ni tashkil etdi.

13,7 % — **366,0** mlrd. so‘m

## Yangi qurilish ishlari hajmi va jami bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi

| | 2020 | 2021 | 2022 | 2023* | 2024* |
|---|---|---|---|---|---|
| Ulushi | 68,4 % | 65,6 % | 64,8 % | 75,7 % | 73,8 % |
| Hajmi | 1 352,7 mlrd. so‘m | 1 465,3 mlrd. so‘m | 1 698,0 mlrd. so‘m | 2 494,8 mlrd. so‘m | 2 665,8 mlrd. so‘m |

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma’lumotlar asosida qayta hisoblangan.

* Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Guliston shahri (646,9 mlrd. so‘m), Mirzaobod tumani (451,5 mlrd. so‘m), Sirdaryo tumani (246,1 mlrd. so‘m) va Yangiyer shahrida (173,3 mlrd. so‘m) qayd etildi.

**646,9** mlrd. so‘m — Guliston shahri

**451,5** mlrd. so‘m — Mirzaobod tumani

**246,1** mlrd. so‘m — Sirdaryo tumani

**173,3** mlrd. so‘m — Yangiyer shahri

**142,1** mlrd. so‘m — Shirin shahri

**82,1** mlrd. so‘m — Sardoba tumani

**69,7** mlrd. so‘m — Guliston tumani

**62,7** mlrd. so‘m — Xovos tumani

**53,0** mlrd. so‘m — Sayxunobod tumani

**46,7** mlrd. so‘m — Boyovut tumani

**38,4** mlrd. so‘m — Oqoltin tumani



* Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

## Bino va inshootlar qurilishining jami hajmlari

**7,9 %**

Yirik qurilish tashkilotlari

***192,8***

mlrd. soʻm

2023- yilning mos davriga nisbatan

***39,5 %***

**67,8 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar

***1 657,9***

mlrd. soʻm

2023- yilning mos davriga nisbatan

***110,3 %***

**24,3 %**

Norasmiy sektor

***595,7***

mlrd. soʻm

2023- yilning mos davriga nisbatan

***114,0 %***

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, “Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish faoliyati boʻyicha oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi”** koʻrsatkichi qoʻllaniladi.

Bino va inshootlarni qurish boʻyicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,9 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagi koʻrsatkichga nisbatan 11,7 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,6 % punktga koʻpayib 67,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 4,1 % punktga koʻpayib, 24,3 % ni tashkil etdi.

*** Viloyat boʻyicha bino va inshootlar qurilishining jami hajmi –**
***2 446,4 mlrd. soʻm***

**Hududlar kesimida qurilishi hajmi,** *mlrd. soʻmda*




*Maʼlumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Yangiyer shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 84,4 %), Guliston tumani (83,2 %) va Sardoba tumani (78,9 %) da kuzatildi.

* Viloyat umumiy koʻrsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.


Yangiyer shahri
**84,4** %



Guliston tumani
**83,2** %


Sardoba tumani
**78,9 %**

## Korxonalar turlari kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmlari




**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yoʻllari, koʻchalar, koʻpriklar va tunnellar, temir yoʻllar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sugʻorish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi ogʻir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish boʻyicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 34,0 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,6 % punktga koʻpaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,6 % punktga kamayib 66,0 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmi, *mlrd. so‘mda*




* Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

*Ma’lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 49,1 %), Xovos tumani (33,8 %) va Guliston shahri (28,4 %)da kuzatildi.




**49,1 %**
Mirzaobod tumani



**33,8 %**
Xovos tumani




**28,4 %**
Guliston shahri

## Korxonalar turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati

***13,2***
mlrd. so‘m
**Yirik qurilish tashkilotlari**

2023-yilning mos davriga nisbatan
***111,9 %***

***194,4***
mlrd. so‘m
**Kichik korxona va mikrofirmalar**

2023-yilning mos davriga nisbatan
***104,2 %***

### Jamiga nisbatan ulushi

**6,4 %**



**93,6 %**



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo‘yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog‘ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o‘z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 6,4 % ni tashkil etdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga ko‘paydi.

Qolgan 93,6 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi.

## Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi, *mlrd. so'mda*




*Ma'lumot uchun:* Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Boyovut tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 10,1 %), Oqoltin tumanida (9,4 %) va Sayxunobod tumanida (8,3 %) kuzatildi.

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.



**10,1 %**
Boyovut tumani



**9,4 %**
Oqoltin tumani




**8,3 %**
Sayxunobod tumani

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so‘mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

## Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo‘yicha taqsimoti va o‘sish sur’ati




2023-yil mos davriga nisbatan **74,0** %

2023-yil mos davriga nisbatan **108,2** %

2023-yil mos davriga nisbatan **114,1** %

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi

| 2023-y. | 2024-y. |
|---|---|
| 20,4 % | 14,7 % |

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 530,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 74,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 5,7 % ga kamayib, 14,7 % ni tashkil etdi.

**Xo‘jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

| | 2020 | 2021 | 2022 | 2023* | 2024* |
|---|---|---|---|---|---|
| Hajmi | 73,9 mlrd. so‘m | 516,9 mlrd. so‘m | 563,7 mlrd. so‘m | 671,4 mlrd. so‘m | 530,3 mlrd. so‘m |
| Oldingi yilning mos davriga nisbatan | 128,1 % | 6,9 m. | 91,2 % | 92,0 % | 74,0 % |

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma’lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, *mlrd. so‘mda*




* Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.



## Jamiga nisbatan ulushi




Shirin shahri




Xovos tumani




Mirzaobod tumani

*Ma’lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Shirin shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 71,4 %), Xovos tumanida (28,0 % ) va Mirzaobod tumanida (20,2 %) qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi




2024-yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 68,8 % to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,6 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ni tashkil etgan holda 2 483,2 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

oldingi yilning mos davriga nisbatan **87,8 %**

oldingi yilning mos davriga nisbatan **88,5 %**




**128,1 %** oldingi yilning mos davriga nisbatan

**102,9 %** oldingi yilning mos davriga nisbatan

**108,2 %** oldingi yilning mos davriga nisbatan

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma’lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududlar kesimida hajmi, *mlrd. so‘m*






* Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

## Jamiga nisbatan ulushi




Yangiyer shahri




Sardoba tumani




Guliston shahri

*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Yangiyer shahri (hududdagi qurilish ishlarining 94,9 %), Sardoba tumani (85,9 %) va Guliston shahriga (85,8 %) to‘g‘ri keldi.

**Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi**




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 16,5 % ni yoki 595,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 114,1 % ni tashkil etdi. Shundan 360,9 mlrd. so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 124,6 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 5,1 mlrd. so‘mni va 27,4 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta’mirlash ishlari 229,6 mlrd. so‘mni va 106,9 % ni tashkil etdi.

| Yil | Hajmi | Oldingi yilning mos davriga nisbatan |
|---|---|---|
| 2020 | 206,3 mlrd. so‘m | 84,7 % |
| 2021 | 202,0 mlrd. so‘m | 91,1 % |
| 2022 | 191,9 mlrd. so‘m | 84,4 % |
| 2023* | 475,4 mlrd. so‘m | 102,3 % |
| 2024* | 595,6 mlrd. so‘m | 114,1 % |

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma’lumotlar asosida qayta hisoblangan.

# Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

## Hududlar kesimida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, *mlrd. so‘mda*

| | |
|---|---|
| Guliston shahri | 88,4 |
| Sirdaryo tumani | 67,3 |
| Xovos tumani | 24,7 |
| Boyovut tumani | 22,5 |
| Guliston tumani | 14,8 |
| Sardoba tumani | 13,7 |
| Yangiyer shahri | 12,5 |
| Sayxunobod tumani | 12,4 |
| Oqoltin tumani | 11,2 |
| Mirzaobod tumani | 11,0 |
| Shirin shahri | 3,1 |

* Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.





**88,4** mlrd. so‘m

Guliston shahri



**67,3** mlrd. so‘m

Siradryo tumani




**24,7** mlrd. so‘m

Xovos tumani

*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahrida (88,4 mlrd. so‘m), Sirdaryo tumanida (67,3 mlrd. so‘m) va Xovos tumanida (24,7 mlrd. so‘m ) qayd etildi.

## Hududlar kesimida davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




## Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi, *mlrd. so‘m*

| | | |
|---|---|---|
| 2023-y.* | 1,4 | - |
| 2024-y. | 127,1 | 3,5 % |



* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma’lumotlar asosida qayta hisoblangan.

***Ma’lumot uchun:*** davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xovos tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 28,0 %), Sayxunobod tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 12,2 %) va Oqoltin tumanida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 11,2 %) qayd etildi.

| Guliston sh. | Mirzaobod tumani | Sirdaryo tumani | Yangiyer sh. | Shirin sh. |
|---|---|---|---|---|
| 789,9 mlrd. so‘m | 655,9 mlrd. so‘m | 312,6 mlrd. so‘m | 243,6 mlrd. so‘m | 207,4 mlrd. so‘m |
| 99,0 % | 95,1 % | 92,3 % | 100,0 % | 100,0 % |

**2024-yil yanvar-oktabr 3 482,0 *mlrd. so‘m***

| Hudud | mlrd. so‘m |
|---|---|
| Oqoltin tumani | 63,9 |
| Boyovut tumani | 68,0 |
| Xovos tumani | 72,4 |
| Sayxunobod tumani | 74,7 |
| Guliston tumani | 99,5 |
| Sardoba tumani | 119,5 |
| Shirin shahri | 207,4 |
| Yangiyer shahri | 243,6 |
| Sirdaryo tumani | 312,6 |
| Mirzaobod tumani | 655,9 |
| Guliston shahri | 789,9 |

*mlrd. so‘m*

***Ma’lumot uchun:*** nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Yangiyer shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %), Shirin shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %) va Guliston shahrida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 99,0 %) qayd etildi.

* Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

*Jamiga nisbatan ulushi, mlrd. so‘m*

| 2023-y. | 2024-y *. |
|---|---|
| 3 295,6 | 3 482,0 |
| 100,0 % | 96,5 % |

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma’lumotlar asosida qayta hisoblangan.

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta’mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o‘zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta’minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o‘rnatish, devorlarni ko‘tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o‘ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko‘rsatadi yoki ish jabhasini ta’minlaydi, ularni qabul qiladi va to‘lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlari** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog‘liq chuqur qidiruv burg‘ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo‘yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug‘ullanuvchi burg‘ulash tashkilotlarini o‘z ichiga oladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi**
**Tel. 67 236-70-00 (2020)**